

ALISHER NAVOIYNI O'RGANMOQ KERAK

Abdimo'minova Dildora Oybek qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek tili

va adabiyot 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mir Alisher Navoiyning hayot yo'li, yoshligi, asarlari haqida ma'lumot berilgan. Ruboiysi tasavvufona tahlil etilgan va Navoiyning adabiyotdagi va bugungi kunda hayotimizdagi o'rni, Navoiy sharafiga qilinayotgan ishlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Amirzoda, avliyo, fotiha, nizomi millati va din, muqarrabi hazrati sultoni, eskalator, g'urbat, g'arib, jannat, shayton, foniy.

“Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovga tegishli ushbu jumlar esimni taniganimdan buyon men bilan hamnafasdir. Ulug' mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy o'zbek va boshqa turkiy xalqlarining shoiri, davlat arbobi, faylasuf, yozuvchi bo'lgan, bundan 582 yil muqaddam 9-fevral kuni Xuroson davlatining poytaxti – hozirgi Afg'oniston hududidagi Hirot shahrining Bog'i Davlatxona mavzesida dunyoga kelgan. Alisher Navoiyning ziyoli va mutafakkir bo'lishida albatta ota-onasining o'rni juda kattadir. Otasi G'iyosiddin Muhammad – Temuriylar saroyida xizmat qilgan, o'z davrining nufuzli kishilaridan biri, onasi esa Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan va otasi o'g'lining ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan.

Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asarida buyuk bobokalonimizning yoshliklari haqida to'liq ma'lumotlar qissa shaklida berilgan. Ushbu qissada Alisher Navoiy yoshligidanoq boshqa bolalardan ajralib turgani Sharafiddin Ali Yazdiy bilan muloqoti shaklida ajib mahorat ila ko'rsatilgan. Navoiy bobomiz bir nechta bolalar bilan birgalikda ulug' tarixchi Yazdiyni ko'radi va boshqalar qochib ketishganda ulardan ajralib turgan holda unga salom beradi, savollariga tarbiya ila rost javob qaytaradi. Sharafiddin Ali Yazdiy kichik Alisherga “- Borakallo. Bul jamoat bolalaridin biz choqirg'onda sen kelib, men bila oshno bo'lding. Kel, sening uchun fotiha o'qoli...” deya duo qiladi. Albatta, Alisher Navoiyning

5 asrdan buyon ulug'lanishiga, nomi o'chmasligiga zehni, ota-onasining tarbiyasi va ulug'larning duolari sababchidir.

Navoiy sharqda “nizomi millati va din”(din va millatning nizomi)unvoni bilan ulug'langan bo'lsa, sulton Husayn Boyqaro “muqarrabi hazrati sultoni” (sulton hazratlarining eng yaqin kishisi)degan maqomni bergan. Alisher Navoiy nafaqat shoirlik balki yurtni obodonlashtirish, ichki nazoratni boshqarishda ham yetarli malakaga ega bo'lgan. Astrobodga hokim bo'lgan davrlarida o'z mablag'lari hisobidan bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ta ko'prik, 20 ta hovuz qurdirgan. Bobokalonimizning “Mahbub ul-qulub”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot”, “Mezon ul-avzon”, “Muhokamat ul-lug'atayin”, “Majolis un-nafois” singari asarlari bugungi kunda xalq ichida juda mashhurdir.

Hazrat Navoiyning ikki tilda ijod etganligi uning ulug'vorligidan dalolat beradi, ya'ni u Navoiy taxallusi bilan turkiy tilda ijod qilgan bo'lsa, forsiy tilda Foni taxallusi bilan tanilgan. Bundan tashqari Navoiy o'z asarlarida kelajakni tasavvur eta olgan, uning dostonlarida aytib o'tilgan zamonaviy texnologiyalar bugungi kunda insonlarning mushkulini yengil qilmoqda. Masalan; “Sab'ai sayyor” dostonida Zayd haqida hikoya keltirgan. Unga ko'ra podshoh Zaydga shunday bir taxt yasashni buyuradiki, uning birinchi zinasiga oyoq qo'ysa, zinaning o'zi taxtga olib chiqadi. Vaholanki, ushbu zinapoya bugungi kunda ko'plab supermarketlarda mavjud bo'lgan eskalatordir. Mir Alisher Navoiyning ruboiylari, g'azallari bir qarashda oddiy yorga, kishilarga bag'ishlangandek tuyiladi, biroq ularning tasavvufiy tahlili mutloq o'zgachadir. Masalan;

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,
Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.

Ushbu ruboiyni eshitmagan kishi bo'lmas kerak. Unda musofir kimsalar ya'ni insonlar o'z yurtidan uzoqda bo'lsa o'zini g'aribdek his etishi va hamma narsa unga qorong'u bo'lishi tasvirlangan. Sababi u o'zga yurtida hech kimni bilmaydi, tanimaydi va ushbu holat podshohning oltin qafasida turgan bulbulga qizil gul kabi eng oliy narsalarni bersangiz ham uning uchun o'z oshyonidagi tikon kabi iliqlik berolmasigiga mengzalgan. Lekin ruboiyni asl ma'nosi mutloq boshqachadir. Ushbu jumalardagi “g'arib” faqatgina musofirlar emas balki bizning barcha barchamizdir. Alloh taolo Odam ato va Momo Havo uchun asl vatan qilib Jannatni xadya etgan. Shu bilan birgalikda ularni shaytonning yolg'oniga ishonishgani uchun o'z yurtlaridan yerga tushirgan. Shunday ekan bizning hammamiz bu dunyoda musofirmiz va bu dunyoning iliqliklari, go'zalliklari insonga haqiqiy huzur bag'ishlamasligi

aytib o'tilgan. Ruboiydagi "G'urbat" aslida bu foniy dunyodir. Ushbu ruboiyni juda ko'pchilik yoddan biladi, biroq asl ma'nosi yashirindir.

Shuningdek, hazrat Alisher Navoiyning har bir rahbarlar uchun o'git hisoblanadigan quyidagi bayti bugungi kun uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Erursen shoh – agar ogohsen sen.

Agar ogohsen sen - shohsen sen.

Eng hayratlanarlisi shundaki, bugungi kunda o'zbek tilshunosligida 80 000dan ortiq soz mavjud bo'lsa, Alisher Navoiy o'z davrida 26 035ta takrorlanmas turkiy so'zlarni asarlarida qo'llagan. Rus xalqining buyuk shoiri Pushkin asarlarida 21 197 ta so'z, ingliz adabiyotining faxri Shekspir esa salkam 20 000ta, ispan adabiyotining dahosi Servantes o'z asarlarida 18 000 taga yaqin so'z ishlatgan va bu jarayon ulug' bobomizning naqadar iste'dodli ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda Alisher Navoiy xotirasiga bag'ishlab juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda, viloyatlarda Navoiy haykali o'rnatilgan, kutubxona, teatr, ko'cha, maktab va universitetlarga uning nomi qo'yilgan, talabalar uchun "Navoiy Stipendiyasi" joriy etilgan. Ulug' bobokalonimizning haykali va byustlari nafaqat O'zbekistonda balki, 2002-yil noyabr oyida Moskvada Serpuxovskaya maydonidagi bog'ning halqasiga qaragan jamoat bog'ida, Ozarbayjon Respublikasining Boku shahrida, Janubiy Korea Respublikasining Seul shahrida, Xitoyning Shanxay shahrida, Yaponiyada, Vashington va Respublikasining Ashxobod shahrida o'rnatilgan.

Xulosa o'rinda har bir inson o'z kelajagini barpo etishida albatta Alisher Navoiy bobomizning asarlarini chuqur o'rganishga erishilsa faqatgina foyda beradi. Alisher Navoiyning turkiy til rivoji uchun qo'shgan hissasi behisobdir. Mana 5 asrki, Navoiyning yodi dilimizdan o'chmagay, har kim har kuni ul zotni qayta qayta tanib bilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I .A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch".T-2008.
2. Mirkarim Osim – "Zulmat ichra nur"
3. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Navoiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. D. Rasulmuhamedova. Toshkent-2022